



“TENGLIK MASALASI: O‘ZBEKISTONDA FEMINIZMGA
MUNOSABAT”

ВОПРОС РАВЕНСТВА: ОТНОШЕНИЕ К ФЕМИНИЗМУ В
УЗБЕКИСТАНЕ

THE QUESTION OF EQUALITY: ATTITUDES TOWARD
FEMINISM IN UZBEKISTAN



O‘zbekiston respublikasi tashqi ishlar vazirligi
diplomatiya universiteti

jahon iqtisodiyoti va

Ministry of foreign affairs of the republic of uzbekistan

University of world economy and diplomacy

Министерство иностранных дел республики узбекистан

Университет мировой экономики и дипломатии

Abdug‘ofurova Marjona Tolib qizi,

JIDU, xalqaro huquq fakulteti 2-kurs talabasi

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va kundalik suhbatlarimizda “feminizm” atamasi bahs va munozaralarga sabab bo‘layotgan mavzulardan biriga aylandi. Afsuski, ko‘p hollarda bu tushuncha jamiyatimizda salbiy bo‘yoqlarda talqin qilinadi. Ko‘pchilikning tasavvurida feminist ayol bu –erkakni hurmat qilmaydigan, farzand ko‘rishni istamaydigan, faqat o‘z erkinligini o‘ylab, oilani buzishga harakat



qiladigan shaxs sifatida gavdalanadi. Aslida, feminizmning mohiyati ayolni erkakka qarshi qo‘yish emas, balki ayolning ham inson sifatida huquqlarini, uning ta’lim olishi, mehnat qilishi va oilada hurmat qilinishini ta’minlashdir. Feminizm oilaga qarshi emas, balki oiladagi adolatsizlikka, zo‘ravonlikka va ayolning shaxsiyati kamsitilishiga qarshidir.

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kunda jamiyatda turlicha va ko‘pincha noto‘g‘ri talqin qilinayotgan feminizm tushunchasining asl mohiyati yoritiladi. Xususan, feminizmning oilaga qarshi emasligi, aksincha, oiladagi adolat, o‘zaro hurmat va tenglik tamoyillarini qo‘llab-quvvatlashi ilmiy va ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqolada feminizmga nisbatan shakllangan stereotiplar, ularning kelib chiqish sabablari hamda real mazmuni o‘rtasidagi tafovut ochib beriladi. Shuningdek, ayollarning ta’lim olish, mehnat qilish, jamiyat hayotida faol ishtirok etish va oilada hurmat qilinish huquqlari feminizm g‘oyalarining asosiy yo‘nalishlari sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida feminizmning jamiyat va oila barqarorligiga tahdid emas, balki sog‘lom va adolatli ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi harakat ekani asoslab beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** feminizm, gender tengligi, ayol huquqlari, oila va jamiyat, stereotiplar, ijtimoiy adolat, oiladagi zo‘ravonlik, shaxsiy erkinlik, teng imkoniyatlar, ayolning ijtimoiy faolligi.*

Feminizm muayyan shaxs yoki guruhning subyektiv qarashlari mahsuli emas, balki ayollarning asrlar davomida duch kelgan ijtimoiy, siyosiy va huquqiy tengsizliklariga nisbatan tabiiy va tarixiy zarurat sifatida shakllangan harakatdir. U jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida yuzaga kelgan adolatsizliklarga javoban paydo bo‘lgan va bir necha muhim bosqichlarni bosib o‘tgan.

Birinchi bosqich ayollarning ta’lim olish va saylov huquqi uchun kurashi bilan bog‘liq. Bir-ikki asr avval ko‘plab jamiyatlarda ayollar na siyosiy jarayonlarda ishtirok eta olgan, na oliy ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Ular ko‘pincha faqat oilaviy doira bilan cheklangan ijtimoiy rolga mahkum etilgan. Feminizmning



ilk namoyandalari ayolni mulk yoki bo'ysunuvchi shaxs emas, balki mustaqil fikrleydigan, jamiyat rivojiga hissa qo'sha oladigan teng huquqli inson sifatida tan olishni talab qilganlar. Aynan shu davrda ayollarning ovoz berish huquqi uchun harakatlar kuchaygan.

Ikkinchi bosqich mehnat va iqtisodiy erkinlik masalalari bilan bog'liq. Sanoatlashuv jarayonida ayollar ishlab chiqarishda faol ishtirok etgan bo'lsalar-da, ularga erkaklarga nisbatan ancha kam haq to'langan va ko'plab sohalarda lavozimiy cheklovlar saqlanib qolgan. Feminizm bu tengsizlikka qarshi chiqib, ayolning o'z mehnatiga yarasha haq olishi, kasb tanlash erkinligiga ega bo'lishi hamda iqtisodiy jihatdan qaramlikdan xoli bo'lishini maqsad qilgan.

Uchinchi va to'rtinchi bosqichlarda esa shaxsiy daxlsizlik, oiladagi mavqe va ijtimoiy hurmat masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Bu davrda ayollarga nisbatan zo'ravonlik, kamsitish, majburiy nikoh va huquqiy himoyasizlik kabi muammolar keng muhokama qilina boshlandi. Tarixan ayrim jamiyatlarda ayol o'z mulkiga egalik qila olmagan, hatto eri yoki otasining roziligisiz mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lmagan. Feminizm aynan shunday holatlarga barham berish, ayolning shaxsiy chegaralarini himoya qilish va uning insoniy qadr-qimmatini ta'minlashni maqsad qilgan.

Shu bois, feminizmning mohiyati erkaklarni inkor etish yoki ularning o'rnini egallash emas. Uning asosiy maqsadi ayolni ham erkak bilan teng darajada inson sifatida e'tirof etish, uning huquq va imkoniyatlarini ta'minlashdan iboratdir. Bu harakat jamiyatda qarama-qarshilikni emas, balki adolat va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirishni ko'zlaydi.

Ko'pchilik feminizm oilaviy rollarni aralashtirib yuboradi va bu oilaning buzilishiga olib keladi, deb qo'rqadi. Aslida hurmat qo'rquvga asoslanmaydi. An'anaviy qarashda ayol eridan qo'rqqani uchun itoat qilishi kerakdek tuyuladi. Feminizm esa oiladagi hurmat qo'rquvga emas, balki o'zaro anglashuv va tenglikka asoslanishini targ'ib qiladi. Erini shaxs sifatida hurmat qiladigan ayol qo'rquv bilan itoat qiladigan ayoldan ko'ra sodiq va samimiyroq bo'ladi. Feministik qarashdagi



oilalarda ro‘zg‘or ishlari va farzand tarbiyasi faqat ayolga tashlab qo‘yilmaydi. Bu esa ayolning charchab, ruhiy tushkunlikka tushishining oldini oladi va oilaviy muhitni sog‘lomlashtiradi.

Feminizmga nisbatan eng keng tarqalgan stereotiplardan biri shuki, go‘yoki feminist ayollar farzand ko‘rishni istamaydi, oilaviy hayotni rad etadi yoki uy-ro‘zg‘or ishlarini mensimaydi. Aslida esa feminizm ayolning tabiatiga, onalik tuyg‘usiga yoki oilaviy qadriyatlarga qarshi emas. U majburiylikka, tanlovsiz qoldirilishga va ayolning faqat bitta ijtimoiy rol bilan cheklanib qolishiga qarshidir.

Feminizm ayolni faqat reproduktiv vazifa bilan bog‘lab qo‘yishga qarshi chiqadi. Ayolni faqat farzand dunyoga keltiruvchi vosita sifatida ko‘rish uning shaxsiyati, intellekti va jamiyatdagi boshqa imkoniyatlarini inkor etish demakdir. Agar ayol o‘z xohishi bilan uyda qolib, farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishni tanlasa, bu uning huquqi va bu tanlov hurmat qilinishi lozim. Muammo ayolning fikri inobatga olinmasdan, uning salomatligi va ruhiy holati hisobga olinmasdan majburlash boshlanganda yuzaga keladi.

Amaliyotda ko‘plab ayollar farzandli bo‘lgach, ijtimoiy hayotdan chetlashib qoladi, kasbiy rivojlanish imkoniyatlaridan mahrum bo‘ladi. Feminizm esa davlat va jamiyat zimmasiga onalar uchun qulay sharoitlar yaratish mas‘uliyatini qo‘yadi: bolalar bog‘chalari tizimini rivojlantirish, mehnat qonunchiligida onalar uchun imtiyozlar belgilash, ish joylarida moslashuvchan ish vaqti yoki masofaviy mehnat imkoniyatlarini kengaytirish shular jumlasidandir. Maqsad ayolni “farzand yoki karyera” degan keskin tanlov qarshisida qoldirmaslikdir.

Shuningdek, feminizm uy-ro‘zg‘or ishlarini faqat ayolning tabiiy vazifasi sifatida talqin etmaydi. Ovqat tayyorlash, tozalikni saqlash yoki farzand parvarishi ikki inson yashayotgan xonadondagi umumiy ehtiyoj va mas‘uliyatdir. Mas‘uliyatning o‘zaro taqsimlanishi ayol zimmasidagi ortiqcha jismoniy va ruhiy yukni kamaytiradi, bu esa oiladagi sog‘lom psixologik muhitni mustahkamlaydi.



Shunday qilib, feminizm onalikni inkor etmaydi; aksincha, uni ongli, hurmatga loyiq va qo‘llab-quvvatlanadigan ijtimoiy maqom sifatida ko‘rishni taklif etadi.

Ko‘pincha “Ayol ko‘p pul topsa, erini mensimay qo‘yadi” deyishadi. Bu juda yuzaki va qo‘rquvga asoslangan fikr. Pul topadigan ayol erini mensimay qo‘ymaydi, balki u bilan muammolarni teng darajada hal qiladigan sherikka aylanadi. Bunday oilalarda qarorlar “men pul topyapman, mening aytganim bo‘ladi” qabilida emas, balki maslahatlashuv asosida qabul qilinadi. Feminizm oilani buzish emas, balki uni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish haqida ham qayg‘uradi. Zamonaviy oila – bir tomonlama hukmronlik emas, balki ikki erkin va baxtli insonning ixtiyoriy ittifoqi.

Uzoq asrlar davomida qiz bola tarbiyasi deganda, avvalo, uni uy-ro‘zg‘or ishlariga o‘rgatish, pazandalik ko‘nikmalarini shakllantirish va eng muhimi, sabrli hamda itoatkor bo‘lishga tayyorlash tushunib kelindi. Albatta, ro‘zg‘or yuritish ko‘nikmalari hayot uchun zarur va qadrlidir. Biroq qiz bolaning butun hayotiy vazifasi faqat shu doira bilan cheklanishi uning shaxsiyati, qobiliyati va imkoniyatlarini toraytiradi.

Ta‘lim qiz bolaning kelajakdagi eng muhim suyanchig‘idir. Shu bois otalar qizlariga “o‘qib nimaga erishasan?” degan shubhali savol bilan emas, balki “ta‘lim sening huquqlaringni anglash, mustaqil qaror qabul qilish va farzandlaringga munosib tarbiya berishing uchun zarur” degan tushuncha bilan yondashishlari lozim. Bilimli ayol nafaqat o‘z hayotini ongli boshqaradi, balki kelajak avlodning ma‘naviy va intellektual kamolotiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

An‘anaviy tarbiyada qiz boladan ko‘pincha sukut saqlash, kattalarning har qanday qaroriga so‘zsiz rozi bo‘lish talab etiladi. Feministik yondashuv esa qiz bolani odob doirasida o‘z fikrini erkin bayon eta olishga, zarur holatlarda “yo‘q” deya olishga va shaxsiy chegaralarini himoya qilishga o‘rgatadi. Bu ko‘nikmalar kelajakda uni oiladagi zo‘ravonlik, ruhiy bosim va kamsitishlardan himoya qiluvchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.



Qiz bolani faqat kelajakda birovning turmush o'rtog'i sifatida emas, balki o'z oyog'ida mustaqil tura oladigan shaxs sifatida tarbiyalash zarur. Bu eriga qarshi chiqish yoki oilaviy nizoni kuchaytirish uchun emas, balki hayotning kutilmagan sinovlari — ayriliq, kasallik yoki iqtisodiy inqiroz kabi vaziyatlarda o'zini va oilasini asrab qolish uchun muhimdir. Mustaqil fikrlaydigan, kasb-hunarga ega ayol og'ir sharoitlarda ham tushkunlikka berilmaydi.

Shu bois feminizm qizlarning fan, texnologiya, boshqaruv, tadbirkorlik yoki san'at sohalaridagi intilishlarini erkaklar bilan teng ravishda qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Chunki jamiyat taraqqiyoti ayol va erkak salohiyatining birdek namoyon bo'lishiga bog'liq.

Jamiyatda erkaklar zimmasiga ham ayollarnikidan kam bo'lmagan ijtimoiy qoliplar yuklangan. Feminizm ayni qoliplarni sindirish orqali erkaklarga yengilliklar berishni nazarda tutadi. An'anaviy jamiyatda erkak – yagona boquvchi degan tushuncha bor. Bu erkak kishini tinimsiz ishlashga, sog'lig'ini yo'qotishga va doimiy stressda yashashga majbur qiladi. Agar ayol kishi ham iqtisodiy faol bo'lsa, oila byudjeti uchun mas'uliyat ikkiga bo'linadi. Bu erkakning yelkasidagi og'ir yukni yengillatadi va unga ham dam olish, o'z ustida ishlash yoki xobbilari bilan shug'ullanish uchun imkoniyat yaratadi. “Erkaklar yig'lamaydi”, “Erkak kishi zaifligini ko'rsatmasligi kerak” degan qarashlar ularning ruhiy salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. Ichga yutilgan tuyg'ular erta o'lim, yurak kasalliklari va agressiyaga sabab bo'ladi. Feminizm erkak kishining ham inson ekanini, uning ham qo'rqish, xafa bo'lish yoki yordam so'rashga haqqi borligini tan oladi. Bu esa ruhiy muvozanatni ta'minlaydi. Ko'pincha otalar faqat pul topuvchi shaxs sifatida ko'riladi va ular farzandlarining ulg'ayishida ishtirok eta olmaydilar. Feminizm esa uy ishlari va bola tarbiyasini umumiy mas'uliyat deb biladi. Bu otalarga o'z farzandlari bilan yaqinroq bo'lish, ularning dunyoqarashini shakllantirishda bevosita qatnashish va farzand mehridan to'liq bahramand bo'lish imkonini beradi. Qo'rquv va bo'ysunishga asoslangan oilada hech qachon chin samimiyat bo'lmaydi. Agar ayol kishi erini pul manbai yoki xo'jayin deb emas, balki teng huquqli do'st va sherik deb



bilsa, bunday oilada mehr, ishonch kuchliroq bo'lishi haqiqatga yaqin. Erkak kishi uyida diktator emas, balki tushuniladigan va qadrlanadigan insonga aylanadi. Feminizm – erkaklar va ayollar o'rtasidagi urush emas, bu ikki insonning bir-birini kamsitmasdan, bir-birining shaxsiyatini hurmat qilgan holda baxtli yashashi uchun kurash.

Bilimli va o'z huquqlarini anglaydigan ayol erkak uchun xavf emas. Aksincha, u ishonchli do'st, oqila maslahatchi va kuchli hamkor bo'la oladi. Sog'lom jamiyat bir jinsning ustunligi asosida emas, balki ayol va erkakning o'zaro uyg'unligi, hurmati va hamkorligi asosida barpo etiladi. Tenglik raqobatni emas, mas'uliyatni bo'lishishni anglatadi.

Milliy tariximizga nazar tashlasak, ayollar faqat uy-ro'zg'or bilan cheklanmaganini ko'ramiz. Masalan, To'maris jasorati bilan tarixda nom qoldirgan bo'lsa, Nodirabegim ma'rifatparvarligi va adabiy merosi bilan jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan. Bu misollar o'zbek ayoli azaldan kuchli iroda, tafakkur va salohiyat egasi bo'lganini ko'rsatadi. Demak, ayolning faolligi va yetakchilik qobiliyati milliy qadriyatlarimizga zid emas.

Feminizm aslida ayollarni begona g'oyalarga emas, balki o'z tarixiy ildizlariga qaytarishga, ulardagi yashirin imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. XX asr boshlarida faoliyat yuritgan Jadidchilik harakati namoyandalari ham ayollarning ta'lim olishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi va turli zulm shakllaridan ozod bo'lishi zarurligini ta'kidlaganlar. Ular ayol savodsiz bo'lsa, millat taraqqiy eta olmasligini chuqur anglagan edilar.

Shunday ekan, ayollar huquqi va ta'limi uchun kurashish biz uchun yot yoki tashqi g'oya emas. Bu — milliy ziyolilarimiz boshlab bergan ma'rifiy harakatning mantiqiy davomidir. Feminizmni milliy qadriyatlarga qarshi qo'yish emas, balki uni adolat, ma'rifat va inson qadrini ulug'lash tamoyillari bilan uyg'un holda anglash maqsadga muvofiqdir.

Ko'p hollarda diniy tushunchalar bilan feminizm o'zaro zid hodisalar sifatida talqin qilinadi. Aslida esa, masalaga tarixiy va huquqiy jihatdan yondashilsa, bunday



qarama-qarshilikning asossiz ekani ayon bo'ladi. Xususan, Islom dini ayolning mulkka egalik qilish, merosdan ulush olish, ta'lim olish va nikohda o'z roziligini bildirish huquqlarini kafolatlagan. Bu normalar o'z davri uchun yuksak ijtimoiy adolat namunasi bo'lgan.

Feminizm ham aynan shu huquqlarning qog'ozda emas, amaliy hayotda to'laqonli ishlashini talab qiladi. U ayolning hurmat qilinishi, shaxs sifatida tan olinishi va unga nisbatan har qanday zo'ravonlikning oldi olinishi zarurligini ilgari suradi. Demak, mohiyatan feminizm diniy qadriyatlardagi adolat va inson qadrini ulug'lash tamoyillariga zid emas, balki ularning hayotiy ifodasini mustahkamlashga intiladi.

Agar ayol oilada o'zini xavfsiz his qilsa, qadrlansa va shaxs sifatida e'tirof etilsa, u oilani buzishga emas, aksincha, uni mustahkamlashga xizmat qiladi. Qadrlangan ayol o'z mehrini, bilimini va kuchini oila ravnaqiga baxsh etadi. Shu bois feminizmni oilaning dushmani sifatida emas, balki sog'lom, adolatli va barqaror oilaning himoyachisi sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Chunki faqat baxtli va o'zini qadrlangan deb bilgan ayolgina komil farzandlarni tarbiyalay oladi, komil farzandlar esa yuksak jamiyat poydevorini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Gender Trouble / Butler, J. – New York: Routledge, 1990.
- Islom dini manbalari: Qur'on va hadis to'plamlari.
- Jadidchilik harakati namoyandalarining asarlari va ma'rifiy qarashlari (XX asr boshlaridagi maqola va risolalar).

Ayol huquqlari va jamiyat – Toshkent, 2015.